



ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20-martdagি 76-son buyrug'i hamda Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 20-maydagи "Ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish to'g'risida" gi 340-U sonli buyrug'i ijrosinи таъминлаш мақсадида 2024 yil 24 may kuni Buxoro davlat universitetida "ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI" mavzusida Ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lif sifatini oshirish, pedagogik ta'lif sohasida ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lif infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyatga tatbiq qilish hisoblanadi.

Ushbu ilmiy to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Pedagogika masalalari bilan qiziquvchilar, pedagoglar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo'ljallangan

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor, G.T. Boymurodova, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Sh.Sh.Olimov, N.N.Musayeva, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasи dotsenti B.T.Jo'rayev.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo'mitasi

1. O.X.Xamidov
 2. T.H.Rasulov
 3. B.R.Adizov
 4. Sh.Sh.Olimov
 5. M.A.Jumaeva
 6. F.N.Nurulloev
- Universitet rektori, i.f.d., professor, rais;
 - Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
 - BuxDU huzuridagi PKQT MO mintaqaviy markaz direktori, p.f.d., professor, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи mudiri , p.f.d., professor, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib;
 - Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;

Ilmiy anjumanning tashkiliy qo'mitasi

1. T.H.Rasulov
 2. Sh.Sh.Olimov
 3. O'.U.Rashidov
 4. F.N.Nurulloev
 5. A.Sh.Inoyatov
 6. N.N.Musaeva
 7. N.E.Azimova
 8. B.T.Juraev
 9. O.R.Ortiqov
 10. M.N. Amonov
- Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
 - Pedagogika kafedrasи mudiri, p.f.d., professor, rais muovini;
 - Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo;
 - Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo;
 - Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekani, a'zo
 - Pedagogika kafedrasи professori, p.f.d., a'zo
 - Pedagogika kafedrasи professori, p.f.n., a'zo
 - Pedagogika kafedrasи dotsenti, a'zo;
 - Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi, a'zo;
 - Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekan muovini, a'zo

TMIni nazorat qilish o'qituvchi uchun o'z-o'zidan maqsad bo'lmasligi kerak, balki talabaning ta'lif faoliyatida rag'batlantiruvchi omil bo'lishi kerak. SRS natijalari joriy akademik ko'rsatkichlar ko'rsatkichlariga, chiptalar va test (imtihon) savollariga kiritilishi kerak, ularning ballari talabaning reytingini, yakuniy bahosini va natijada stipendiya yoki uning miqdorini belgilaydi. Ko'pgina talabalar axloqiy qiziqishni ijtimoiy tan olish shaklida qadrlashadi (bo'lim, mutaxassislik yoki guruhda birinchi bo'lish yoqimli).

Mustaqil ish - talabalarning o'qituvchining ko'rsatmalari va uslubiy rahbarligi bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladigan rejali ishi. Mustaqil ish quyidagilarga yordam beradi: talabalar bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish; kognitiv faoliyatga qiziqishni shakllantirish; bilish jarayonining texnikasini o'zlashtirish; kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish. Shu bois u zamonaviy mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning asosiy zaxirasiga aylanmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda mustaqil ish barcha turdag'i tarbiyaviy ishlarning vazifalarini bajaradi. Mustaqil faoliyat bilan quvvatlanmaydigan hech qanday bilim insonning haqiqiy mulkiga aylana olmaydi. Bundan tashqari, mustaqil ish tarbiyaviy ahamiyatga ega: u mustaqillikni nafaqat ko'nikma va qobiliyatlar majmui sifatida, balki zamonaviy yuqori malakali mutaxassisning shaxsiyati tarkibida muhim rol o'ynaydigan xarakterli xususiyat sifatida ham shakllantiradi.

O'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy ish shakllarini rejalashtirishda talabalarning ularni bajarishlari uchun zarur bo'lgan vaqtini, kutubxonalar va bo'limlarda elektron va qog'oz tashuvchilarda etarli miqdordagi monografik, o'quv, o'quv va uslubiy adabiyotlarning mavjudligini hisobga olishlari kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son farmoni. www.lex.uz
2. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
3. Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar - ta'lif natijalari uchun yangi paradigma // Oliy ta'lif 2003. No 5.
4. Kovalevskiy I. Talabaning mustaqil ishini tashkil etish // Rossiyada oliy ta'lif № 1, 2000, p. 114-115 b.
5. Qo`ziboyeva M.M. Talabalar mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni. "Ekonomika i sotsium" jurnali № 5 (108) -2 2023 yil

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI

**Juraev Bobomurod Tojievich,
BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti**

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'lifning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'lifni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarining ta'lif berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniiga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lif olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

O'z navbatida bu vazialarni amalga oshirish uchun oliy ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'naliishlari sifatida:

-oliy ta'lif bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

-mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etishni amalga oshirish ta'kidlangan.

DTS ga asosan talabalarning mustaqil ishi ta'lim jarayonining muhim komponenti hisoblanib, ma'ruza mashg'ulotlari davomida egallangan bilimlarni mustahkamlash, o'z navbatida bu bilimlar mazmunini anglash va kengaytirish, umummadaniy hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga oid ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini berib, seminar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik hamda joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni topshirish jarayonidagi faoliyatni nazarda tutadi.

Turli xil bilimlarni egallahsga oid mustaqil ish ko'nikmalarini insonning ilk bolalik davridan boshlanib butun umri davomida rivojlanib boradi. Oliyohda o'qishni boshlash davrida har bir talaba maktab, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'rgangan, ijtimoiy muhitda shakllangan o'z faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'nikmalar va shaxsiy tajribasiga ega bo'ladi. Murakkab umummadaniy hamda kasbiy kompetensiyalarni egallahs asnosida, oliyohda ta'lim olish jarayonida mustaqil ishni tashkil etishga qo'yiladigan talab sezilarli darajada ko'payadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ishni bajarishga qo'yiladigan talabalarni bajarishga tayyorgarlik darajalari turlicha bo'ladi.

Bu o'rinda talabalarning ikkita asosiy guruhi ajratiladi. Birinchi guruh vakillari universal o'quv kompetensiyalariga ega bo'lgan holda mustaqil ish vazifalarini muvvafaqiyatli bajaradilar ya'ni, olingan ma'lumotlarni eslab qolish va tushunish, mantiqiy fikrlash, o'quv materialini og'zaki va yozma bayon qilish, hisoblash, o'lhash, loyihalash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Ikkinci guruh talabalari o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil ishlarni muntazam bajarishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular past o'quv kompetensiyalarni namoyon qilgan holda o'z faoliyatlarini sust tarzda tashkil etadilar.

Oliy ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan mustaqil ishlar quyidagi **vazifalarini** hal etishga yo'naltiriladi:

-auditoriya va auditoriyadan tashqarida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikmalarini kengaytirish va mustahkamlash, ularni aqliy va jismoniy faoliyat stereotiplariga aylantirish;

- o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim va ko'nikmalarini egallah;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- ta'lim dasturlarini sifatli o'zlashtirishga bo'lgan munosabat va ustanovkani rivojlantirish;
- mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- samarali mustaqil kasbiy nazariy, amaliy va o'quv-tadqiqot faoliyatini ko'nikmalarini hosil qilish.

Talabalar mustaqil ishlari vazifalarini bajarish va amalga oshirish uchun bir qator **shart-sharoitlar** bo'lishi talab etiladi. Bular:

- moddiy-texnik bazaning mavjudligi;
- auditoriya va auditoriyadan tashqarida talabalarning mustaqil ishlarini uchun zaruriy axborot fondining mavjudligi;

-talabalarning mustaqil ishlar tarkibiga kiruvchi aniq vazifalarini bajarish uchun kerakli binolarning mavjudligi;

- talabalar mustaqil ishi vazifalarini mazmunining asoslanganligi;
- mustaqil ishning fan ishchi dasturi hamda uni bajarishga ajratilgan vaqt bilan bog'liqligi;
- professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarda o'z faoliyatini tashkil etish va universal o'quv kompetensiyalari ko'nikmalarini shakllantirish

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

-o‘qituvchilar tomonidan talabalar mustaqil ishlarini bajarishning barcha bosqichlarini nazorat qilib borish, natijalarning joriy va yakunniy nazorati.

Zamonaviy ta’lim jarayoni doirasida mustaqil ishlarni tashkil etishning quyidagi o‘ziga xos prinsiplari mavjud:

- o‘qitishning interfaolligi prinsipi (talabalar harakatini nazorat va korreksiyalashni amalga oshirishni ta’minlaydigan interfaol muloqot va teskari aloqani ta’minlash)

-talabalar intellektual quvvatlarini rivojlantirish prinsipi.

(tafakkurning algoritmik, ko‘rgazmali-obrazli, nazariy uslublarini hamda murakkab vaziyatlarda qulay va turli xil qarorlar qabul qilish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish)

— o‘qitishning didaktik davri uzlusizligi va butunligini ta’minlash prinsipi.

(modul, bo‘lim, hamda mavzu doirasida didaktik davrning barcha bo‘g‘inlarini amalga oshirish imkoniyatini hosil qilish)

Talabalarning mustaqil ishi o‘qituvchi tomonidan fanning ishchi dasturi mazmunida rejalashtiriladi va o‘z ifodasini topadi. Texnologik xaritada esa mustaqil ishning shakli, hajmi, bajarish muddati hamda baholash mezonlari yoritiladi.

Talabalarning mustaqil ishi:

- tashkil etish joyi (auditoriya va auditoriyadan tashqari);

- tashkil etish maqsadi(fan ishchi dasturida belgilangan va asoslangan maqsad asosida);

- tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ga qarab tasniflanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ni tanlash o‘quv fani mazmuni va o‘qitishni tashkil etish shakli bilan aniqlanadi(ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, nazorat ishi va x.k.z)

Turli darajadagi mustaqil ish turlari farqlanadi:

1. Namuna asosidagi mustaqil ish- mustaqil faoliyatning past darajasi.

Yechimni aniqlashning taniqli usulini qo‘llagan holda vazifalarni bajarish. Bu ishlarni o‘qituvchi tomonidan avval ko‘rsatilgan hamda talabalar tomonidan tajribadan o‘tkazilgan mustaqil ishlarni qayta takrorlash asosida bajariladi.

2. Rekonstruktiv-variativ tip mustaqil faoliyatning boshlang‘ich darajasi. Bilimlarni tipik vaziyatlarga ongli ravishda o‘tkazish, turli hodisalar, voqealar, faktlarni tahlil qilish, bilish faoliyati metodlari va usullarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

3. Evristik mustaqil ishlarni mustaqil faoliyatning harakatchan darajasi. Talabalarda ijodiy shaxsnii shakllantirishga yordam beradi. Bu tipdagisi ishlarni bajarishda doimiy ravishda yangi yechimlarni izlash, egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni nostandardt vaziyatlarga o‘tkazish taqozo etiladi.

4. Predmet ichida va predmetlararo tadqiqot tipidagi mustaqil ishlarni mustaqil faoliyatning yuqori darajasi. Mustaqil ishlarni bajarishning eng yuqori bosqichi hisoblanib, bunday ishlarni bajarishda vazifa yechimini topish yo‘llarini ishlab chiqish talab etiladi.

Turli darajadagi mustaqil ishlarni bajarishda talabalar konspektlashtirish, misollarni tanlash, taqqoslash, fanlararo aloqalarni aniqlash, qo‘srimcha adabiyotlarni qo‘llash kabi kompleks faoliyat usullaridan foydalana olishlari muhimdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati

1. Абдалова С.Р. Физикадан мустақил таълимни ташкил этиш технологиялари (Касб-хунар колледжлари мисолида)// Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. –Наманган, 2011

2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2006.

3. Davronov I. E., Jurayev B. T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi //B.: Durdona. – 2019.

**2-ШЎЬБА: ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПРОФЕССОР-
ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИ: ТАРБИЯВИЙ
ФАОЛИЯТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.....130**

Степанова Т.П. К РАССМОТРЕНИЮ УСЛОВИЙ ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИВАЮЩЕГО ДОСУГОВОГО ОБЩЕНИЯ	130
Турсунова М. Г., Тайгуншоева Ч. С. К ИЗУЧЕНИИ СУЩНОСТИ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ: ПОНЯТИЯ, СУЩНОСТЬ, КРИТЕРИИ.....	134
Shabon Muxamadovna Farmonova, BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	139
Пегушина Ю.А. ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ФЕСТИВАЛЯ, НАПРАВЛЕННАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИМИДЖА УЧРЕЖДЕНИЯ КУЛЬТУРЫ.....	142
Садовникова В. В., Сафаралиев Б.С. ПРАКТИКА ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ УЧРЕЖДЕНИЙ КУЛЬТУРЫ	147
Kenjaboyev Abdisalim Erkaboyevich. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDA MA'NAVIY-MARIFIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	151
Самиев Асроридин Сайфидинович, ИМОМ АЛ-БУХОРИЙ МУҲАДДИСЛАР ПЕШВОСИ ВА МАҶРИФАТ АСОСЧИСИ	153
Mehribo Jumayeva Abduvohitovna, JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY MEROSINI O'RGANISH VA UNDAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	155
Mirzayev M. J. TALABA-YOSHLAR MA'NAVIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY SHAKL VA USULLARI.....	157
Nurulloyev Laziz Latipovich. HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	160
Ismatova Halovat Baxtiyorovna, O`SMIRLARDA TARBIYASI QIYINLIK TIPALOGIYASI VA ULARDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXALAGIK USULLARI.....	162
Ortiqov O.R. AJDODLARIMIZ MEROSI TALABALAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH OMILI.....	165
Saidnazarova Gulshan Bolta kizi. THE CONTENT OF STUDYING SPIRITUAL AND MORAL THOUGHTS IN IMAM ISMAIL AL-BUKHARI'S WORK "AL ADAB AL MUFRAD"	167
Qodirova Mohidil Namozovna, O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI	170
Umarova Sitora Muxlisovna, ABOUT PERSIAN-TAJIK POET AND SATIRIST UBAID ZAKANI	172
Shabon Muxamadovna Farmonova. TA'LIM MAZMUNI KONTEKSTIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARNING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH.....	174
Raximova Feruza Farxodovna, BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI	176
Г.Г.Хабибова, ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЕЖЫ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ.....	178
Ш.У.Исматов, ЖАДИДЛАРИМИЗ ФАОЛИЯТИ - ЙОРТГА ФИДОЙИЙЛИК ТИМСОЛИ СИФАТИДА	181

3-ШЎЬБА: ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ 185

Avezov Olmos Ravshanovich, Xoliqov Soib Orifovich, MUSTAQIL ISH TALABALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING ENG MUHIM ELEMENTI SIFATIDA	185
Juraev Bobomurod Tojievich, TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH PRINSIPLARI	188